e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/0xq11075

BUXORO VILOYATIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNING TARIXIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA DINAMIKASI (1991–2000-YILLAR)

Muyiddinov Bekali Bahodirovich
Osiyo xalqaro universiteti, o‘qituvchi.
e-mail: bekalimuhiddinov96@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0000-1044-0374

Annotatsiya.
Ushbu maqolada 1991–2000-yillarda Buxoro viloyatida chorvachilik sohasining tarixiy holati va rivojlanish xususiyatlari, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, shuningdek, tumanlar kesimida chorvachilik tarmoqlariga qaratilgan e’tibor masalalari yoritilgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida sohada yuzaga kelgan muammolar, ularni bartaraf etishga qaratilgan islohotlar, davlat agrar siyosatining hududiy chorvachilik rivojiga ta’siri, mulkchilik shakllaridagi o‘zgarishlar, fermer va dehqon xo‘jaliklarining shakllanishi hamda rivojlanishi tahlil qilingan. Bundan tashqari, chorva mollari naslini yaxshilash, chorvachilik tarmoqlarini takomillashtirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning tarixiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro viloyati, chorvachilik, agrar islohotlar, mustaqillik davri, chorvachilik mahsulotlari, go‘sht ishlab chiqarish, sut yetishtirish, qorako‘lchilik, qoramolchilik, qo‘ychilik, parrandachilik, xususiylashtirish, fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, naslchilik.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ (1991–2000 ГГ.)

Муйиддинов Бекали Баходирович
Азиатский международный университет, преподаватель.

Аннотация.
В статье рассматриваются историческое состояние и особенности развития животноводческой отрасли Бухарской области в 1991–2000 годах, динамика производства животноводческой продукции, а также вопросы внимания к развитию отдельных отраслей животноводства в разрезе районов. Анализируются проблемы, возникшие в отрасли в первые годы независимости, реформы, направленные на их преодоление, влияние государственной аграрной политики на развитие животноводства в регионе, изменения форм собственности, становление и развитие фермерских и дехканских хозяйств. Кроме того, раскрывается историческое значение мероприятий, направленных на улучшение породных качеств сельскохозяйственных животных, совершенствование отраслей животноводства и увеличение объёмов производства продукции.

Ключевые слова: Бухарская область, животноводство, аграрные реформы, период независимости, продукция животноводства, производство мяса, производство молока, каракулеводство, скотоводство, овцеводство, птицеводство, приватизация, фермерские хозяйства, дехканские хозяйства, племенное животноводство.

HISTORICAL FEATURES AND DYNAMICS OF LIVESTOCK PRODUCT PRODUCTION IN THE BUKHARA REGION (1991–2000)

Muyiddinov Bekali Bahodirovich
Asia International University, Lecturer.

Abstract.
This article examines the historical conditions and development characteristics of the livestock sector in the Bukhara region between 1991 and 2000, the dynamics of livestock product production, and the attention given to various branches of animal husbandry across the region's districts. It also analyzes the challenges that emerged in the sector during the early years of independence, reforms aimed at addressing these challenges, the impact of state agricultural policy on regional livestock development, changes in forms of ownership, and the establishment and development of private farms and dehkan farms. Furthermore, the article highlights the historical significance of measures aimed at improving livestock breeds, modernizing livestock production sectors, and increasing production volumes.

Keywords: Bukhara region, animal husbandry, agrarian reforms, independence period, livestock products, meat production, milk production, Karakul sheep breeding,

ISSN 3060-5059 (Online)

cattle breeding, sheep farming, poultry farming, privatization, private farms, dehkan farms, livestock breeding.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qishloq xo‘jaligi, xususan, chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishida muhim tarixiy bosqichni boshlab berdi. Mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan chorvachilik aholining go‘sht, sut, tuxum va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash, qishloq joylarda bandlikni oshirish hamda agrar ishlab chiqarish barqarorligini saqlashda alohida ahamiyat kasb etdi. Shu jihatdan, 1991–2000-yillar O‘zbekiston, jumladan, Buxoro viloyati chorvachilik tarmog‘ining tashkiliy-iqtisodiy asoslari qayta shakllangan, ishlab chiqarish munosabatlari va xo‘jalik yuritish mexanizmlari o‘zgargan davr sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Mazkur davrda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish jarayoni chorvachilik sohasida qator murakkabliklarni yuzaga keltirdi. Jumladan, markazlashgan ta’minot tizimining izdan chiqishi, yem-xashak bazasining yetarli darajada shakllanmagani, chorva mollari naslini yaxshilash bilan bog‘liq muammolar, moddiy-texnik ta’minotdagi uzilishlar hamda ayrim chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishi tarmoq rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi [1, 247]. Ayniqsa, tabiiy-iqlim sharoitiga ko‘ra cho‘l va yarim cho‘l hududlari keng tarqalgan Buxoro viloyatida chorvachilikni rivojlantirish, mavjud yaylov va ozuqa resurslaridan samarali foydalanish, qorako‘lchilik, qoramolchilik, qo‘ychilik va parrandachilik tarmoqlarini saqlab qolish hamda takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘ldi [4, 122]. Tadqiq etilayotgan 1991–2000-yillar davomida Buxoro viloyatining turli tumanlarida chorvachilik tarmoqlarining rivojlanish sur’atlari bir xil kechmadi. Ayrim hududlarda qoramolchilik va sut yetishtirishga, boshqa tumanlarda esa qo‘ychilik va qorako‘lchilikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog‘i rivojlanishiga ta’siri va uning asosiy xususiyatlariga oid N. Nurmatovning tadqiqotlari, shuningdek, Sh. Axmedovning “O‘zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish tarixi (1991–2022-yillar)” nomli avtoreferati o‘rganildi.

1991–2000-yillarda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish davlat dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining ma’lumotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, shuningdek, Buxoro viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasining Buxoro viloyati hokimligiga tegishli 1459-fondi, Qishloq xo‘jaligi boshqarmasiga tegishli 1672- va 1673-fondlari hamda Vobkent tumani davlat arxividagi 272-fond hujjatlari asosida maqola mavzusi alohida o‘rganildi.

NATIJALAR

1990-yillarning ikkinchi yarmida Buxoro viloyatida chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishi murakkab va ziddiyatli jarayonlar bilan kechdi. Mazkur davrda amalga oshirilgan agrar islohotlar, xo‘jalik yuritish shakllarining o‘zgarishi va chorvachilik fermalarining xususiylashtirilishi sohada muayyan tarkibiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida qator muammolar saqlanib qoldi. Xususan, 1993–1998-yillarda viloyat xo‘jaliklarida sigirlar bosh sonini ko‘paytirish, mavjud chorva mollaridan samarali foydalanish, ularni ilg‘or usullar asosida parvarishlash hamda yosh urg‘ochi tanalardan mahsuldor sigirlar podasini shakllantirish bo‘yicha belgilangan tadbirlar yetarli darajada amalga oshirilmadi. Chorvachilik tarmog‘idagi bunday holat, avvalo, xo‘jaliklarda ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazoratning susayishi va chorva mollarini saqlash bilan bog‘liq talablarning to‘liq bajarilmaganligi bilan izohlanadi. Ayrim xo‘jalik rahbarlari mavjud nazorat mexanizmlarining sustligidan foydalanib, sigirlar hamda ikki yoshdan katta urg‘ochi tanalarni turli sabablarga ko‘ra xo‘jalik hisobidan chiqarishga yo‘l qo‘yganlar. Natijada viloyatda sigirlar bosh sonining qisqarishi kuzatildi. Jumladan, 1997-yilda Buxoro viloyati xo‘jaliklarida 26,9 ming bosh sigir mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1998-yil yakunida bu ko‘rsatkich 20,2 ming boshga tushib, 6,7 ming boshga yoki qariyb 25 foizga kamaygan. Mazkur jarayon tumanlar kesimida ham namoyon bo‘lib, Romitan tumanida sigirlar soni 27 foizga, Vobkentda 28 foizga, G‘ijduvonda esa 30 foizga qisqargan. Shu bilan birga, mazkur davrda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda nodavlat sektorining, xususan, shaxsiy yordamchi va dehqon-fermer xo‘jaliklarining mavqeyi tobora ortib bordi [7, 14]. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatdagi jami qoramollarning 88 foizi, sigirlarning 91 foizi, qo‘y va echkilarning 67 foizi ushbu xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelgan. 1997-yilda ular tomonidan viloyatda yetishtirilgan go‘shtning 83 foizi va sutning 84,4 foizi ishlab chiqarilgan. Bu ko‘rsatkichlar chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda aholining shaxsiy xo‘jaliklari va yangi shakllanayotgan fermer xo‘jaliklari asosiy ishlab chiqaruvchi subyektlardan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Biroq ayrim mahalliy boshqaruv organlari tomonidan dehqon xo‘jaliklarining tashkiliy va iqtisodiy muammolarini hal etishda yetarli ko‘mak ko‘rsatilmaganligi, shuningdek, yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklarida bozor sharoitida faoliyat yuritish tajribasining kamligi ularning ayrimlarini o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur qilgan. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hududiy tafovutlar 1998-yil ko‘rsatkichlarida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Ayrim tumanlarda go‘sht va sut yetishtirish hajmlarining kamayishi kuzatildi. Xususan, go‘sht ishlab chiqarish Shofirkon tumanida 46 foizga, Kogon tumanida 25 foizga qisqargan. Sut yetishtirish esa Vobkent, Qorako‘l va Shofirkon tumanlarida 24 foizga kamaygan [6, 54]. Bundan tashqari, tayyorlov tashkilotlariga topshirilgan hamda xo‘jaliklarning ichki ehtiyojlari uchun so‘yilgan qoramollarning tirik vazni ham belgilangan zootexnik talablarga javob bermagan. Me’yor bo‘yicha 350–400 kilogramm vaznda topshirilishi lozim bo‘lgan qoramollarning o‘rtacha tirik vazni Vobkent tumanida 150 kilogramm, Qorako‘l tumanida 207 kilogramm, Kogon tumanida esa 225 kilogrammni tashkil etgan. Ushbu holat chorva mollarini boqish, oziqlantirish va mahsuldorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar tarmoq samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatganini anglatadi [5, 178].

1999-yilga kelib, viloyat qishloq xo‘jaligida nodavlat sektorining ulushi yanada mustahkamlandi. Barcha tizim xo‘jaliklari bo‘yicha yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish amaldagi narxlarda 66 662 mln so‘mni,

ISSN 3060-5059 (Online)

solishtirma narxlarda esa 42 144 mln so‘mni tashkil etdi [2, 147]. Bu ko‘rsatkich 1998-yilga nisbatan 9,3 foizlik o‘sishni anglatgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda nodavlat sektorining ulushi 99,6 foizga yetgan. Mazkur yilda viloyatda 89 ta jamoa, 91 ta shirkat, 2 862 ta fermer xo‘jaligi hamda 28 414 ta dehqon xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularning 1 002 tasi yuridik maqomga ega edi. Keltirilgan ma’lumotlar agrar sohada mulkchilik munosabatlarining o‘zgarishi va nodavlat xo‘jalik yuritish shakllarining kengayishi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning tashkiliy asoslarini ham o‘zgartirib borganini ko‘rsatadi. 2000-yilga mo‘ljallangan rivojlantirish vazifalarida chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish va ularning mahsuldorligini oshirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Jumladan, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qoramollar bosh sonini 112 foizga, jamoa sektorida 109 foizga, sigirlar sonini 115 foizga, qo‘y va echkilar sonini 129–141 foizga, parrandalar sonini esa 245 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, buzoq olish ko‘rsatkichini 176 foizga oshirish hamda bir sigirdan sog‘ib olinadigan sut miqdorini 992 kilogrammdan 2 108 kilogrammga yetkazish rejalashtirilgan.

MUHOKAMA

Buxoro viloyatida chorvachilik tarmog‘ini isloh qilish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va xo‘jaliklarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash maqsadida xususiylashtirish jarayonlari izchil davom ettirildi. Xususan, 1994-yildan boshlab qoramolchilik, qo‘ychilik va parrandachilik fermalarini nodavlat mulk shakliga o‘tkazish ko‘lami kengaydi. Fermalarni sotib olishda ularning umumiy qiymatining har yili 10 foizini to‘lash tartibi belgilandi. Shuningdek, xaridorlarga 1,3 mln so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilib, xo‘jaliklarni rivojlantirish uchun yer maydonlari, texnika, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i va urug‘lik bilan ta’minlash choralari ko‘rildi. Mazkur tadbirlar chorvachilikda xususiy mulkdorlar qatlamini shakllantirish va ishlab chiqarish jarayoniga iqtisodiy manfaatdorlik tamoyillarini joriy etishga qaratilgan edi. Biroq xususiylashtirish jarayonlarining kengayishiga qaramasdan, viloyatning ayrim xo‘jaliklarida chorva mollari bosh soni, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, davlatga mahsulot sotish va buzoq olish ko‘rsatkichlarida pasayish kuzatildi. Jumladan, Vobkent tumanidagi Oxunboboyev nomli jamoa xo‘jaligida 1994-yilda sut ishlab chiqarish 1993-yilga nisbatan 185 tonnaga, har bir sigirdan o‘rtacha sut sog‘ib olish 332 kilogrammga kamaygan. Shuningdek, buzoq olish ko‘rsatkichida ham 16 boshga qisqarish qayd etilgan [7, 69]. Bu holat xo‘jaliklarni mulkchilik jihatidan qayta tashkil etishning o‘zi ishlab chiqarish samaradorligini avtomatik ravishda oshirmasligini, buning uchun tegishli tashkiliy, iqtisodiy va moddiy shart-sharoitlar zarurligini ko‘rsatadi. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatgan muhim omillardan yana biri yem-xashak bazasining zaiflashuvi bo‘ldi. Yildan-yilga jamoa xo‘jaliklarida chorva mollari uchun ozuqa yetishtirishga ajratiladigan yer maydonlarining qisqarishi, suv ta’minotidagi muammolar, yaylovlarda yog‘ingarchilik miqdorining me’yordan kam bo‘lishi hamda garmsel kabi tabiiy-iqlim hodisalari ozuqabop ekinlar hosildorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Viloyat bo‘yicha bir gektar ozuqabop ekin maydonidan o‘rtacha 37,1 sentner ozuqa birligi hisobida hosil olingan. Bunday sharoitda chorva mollarini belgilangan zootexnik me’yorlar va ratsional oziqlantirish talablariga muvofiq parvarishlash imkoniyatlari cheklangan. Natijada, ayniqsa, jamoa sektoridagi chorva mollari mahsuldorligi hamda go‘sht va sut ishlab chiqarish hajmida pasayish holatlari yuzaga kelgan. Shu bilan birga, viloyatda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari yetakchi o‘rinlardan birini egallab bordi.

Chorvachilikni tarkibiy jihatdan qayta tashkil etish jarayonida xo‘jaliklarning ixtisoslashuviga ham alohida e’tibor qaratildi. Xususan, ixtisoslashmagan xo‘jaliklar tasarrufidagi qoramolchilik, qo‘ychilik, parrandachilik va baliqchilik fermalarini bosqichma-bosqich qayta tashkil etish belgilandi. Qoramollari soni 250 boshdan kam bo‘lgan fermalarni sotish, 250 boshdan ortiq qoramolga ega fermalarni esa fermer xo‘jaliklariga aylantirish tartibi nazarda tutildi. Bunday yondashuv ishlab chiqarish quvvatlarini iqtisodiy jihatdan maqbullashtirish, chorva mollarini saqlash va parvarishlashni xo‘jaliklarning imkoniyatlariga moslashtirish hamda ixtisoslashgan xo‘jaliklar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan edi. Bundan tashqari, chorva mollari naslini yaxshilash va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida naslchilik ishlarini takomillashtirishga ham e’tibor kuchaytirildi. 1998-yilda qishloq xo‘jaligida mulkiy va tashkiliy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan huquqiy islohotlar chorvachilik tarmog‘i rivojiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Yer to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 299-sonli “Qishloq xo‘jaligini isloh qilishga oid qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) tuzish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 300-sonli “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qarorlari agrar sohada yangi tashkiliy-huquqiy munosabatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutdi [6, 247].

XULOSA

1991–2000-yillarda Buxoro viloyatida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning tarixiy rivojlanish jarayonlari O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlar, mulkchilik munosabatlarining o‘zgarishi hamda qishloq xo‘jaligini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish bilan bevosita bog‘liq holda kechdi. Biroq islohotlarning dastlabki bosqichida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari barcha hududlarda bir xil rivojlanmadi. Ayrim tumanlarda chorva mollari bosh sonining qisqarishi, go‘sht va sut ishlab chiqarish hajmining kamayishi, yem-xashak ta’minotidagi muammolar hamda xo‘jaliklarning moddiy-texnik imkoniyatlari cheklanganligi tarmoqning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida Buxoro viloyati chorvachiligida ishlab chiqarishning davlat va jamoa sektoridan nodavlat xo‘jalik yuritish shakllariga o‘tishi muhim tarixiy jarayonlardan biri bo‘ldi. Xususan, 1997-yilda viloyatdagi qoramollarning 88 foizi, sigirlarning 91 foizi hamda qo‘y va echkilarning 67 foizi shaxsiy yordamchi va dehqon-fermer xo‘jaliklari tasarrufida bo‘lgan. Ushbu xo‘jaliklar tomonidan go‘shtning 83 foizi va sutning 84,4 foizi ishlab chiqarilganligi chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda nodavlat sektorining mavqeyi ortib borganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, 1999-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda nodavlat sektorining ulushi 99,6 foizga yetgani viloyat agrar iqtisodiyotida mulkchilik munosabatlarining tubdan o‘zgarganini ko‘rsatadi [3,

ISSN 3060-5059 (Online)

249]. Biroq ushbu ko‘rsatkich umumiy qishloq xo‘jaligiga tegishli bo‘lib, uni bevosita chorvachilik tarmog‘ining ulushi sifatida baholash maqsadga muvofiq emas. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mustahkam yem-xashak bazasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, Buxoro viloyatining cho‘l va yarim cho‘l hududlarida tabiiy yaylovlardan oqilona foydalanish, ozuqabop ekinlar maydonini kengaytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda chorva mollari uchun mavsumiy ozuqa zaxiralarini yaratish dolzarb vazifalardan biri bo‘ldi. Shu maqsadda xo‘jaliklarda javdar, tariq, raps va perko kabi oraliq ekinlarni yetishtirish, beda, makkajo‘xori va lavlagi ekinlaridan ozuqa sifatida foydalanish, silos hamda dag‘al xashak zaxiralarini shakllantirishga e’tibor qaratildi. Xususan, makkajo‘xorini sut-mum pishish bosqichida silosga bostirish, sog‘in sigirlarni oqsil va uglevodlarga boy ozuqa bilan ta’minlash, erta bahorda ko‘k ozuqadan foydalanish kabi agrotexnik tadbirlar chorva mollari mahsuldorligini oshirishning muhim omillari sifatida qaraldi. Biroq suv tanqisligi, yog‘ingarchilikning kamligi, garmsel shamollari va ozuqabop ekin maydonlarining qisqarishi mazkur tadbirlarning barcha xo‘jaliklarda birdek natija berishiga imkon yaratmadi. Shuningdek, viloyatda qorako‘lchilik va qo‘ychilik tarmoqlarining rivojlanishi tabiiy yaylovlarning holati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

Umuman olganda, mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida Buxoro viloyati chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishi murakkab tarixiy-iqtisodiy jarayon sifatida namoyon bo‘ldi. Bir tomondan, davlat va jamoa xo‘jaliklarining qayta tashkil etilishi, xususiy mulkchilik munosabatlarining shakllanishi, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatining kengayishi hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda nodavlat sektorining ulushi ortishi kuzatildi. Ikkinchi tomondan, yem-xashak bazasining yetarli darajada mustahkamlanmagani, tabiiy-iqlim sharoitining murakkabligi, moddiy-texnik ta’minotdagi kamchiliklar va ayrim xo‘jaliklarda boshqaruv samaradorligining pastligi tarmoq rivojlanishini cheklab turdi. Mazkur tarixiy tajriba chorvachilik sohasida amalga oshirilgan agrar islohotlarning natijadorligi nafaqat mulkchilik shakllarining o‘zgarishiga, balki ishlab chiqarish resurslari, ozuqa ta’minoti, naslchilik, xo‘jalik boshqaruvi va hududiy tabiiy sharoitlarning o‘zaro uyg‘unligiga ham bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, 1991–2000-yillarda Buxoro viloyati chorvachiligida yuz bergan o‘zgarishlar O‘zbekistonning mustaqillik davri agrar tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1998–2000-yillar davrida chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik uchun omuxta yem ishlab chiqarishni ko‘paytirish va uning sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.
2. 1998–2000-yillarda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish davlat dasturi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotnomasi.
4. Axmedov Sh. O‘zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish tarixi (1991–2022-yillar): avtoreferat. – Toshkent, 2024.
5. Buxoro viloyat davlat arxivi. – M-1459-fond: Buxoro viloyat hokimligi.
6. Buxoro viloyat davlat arxivi. – M-1673-fond: Buxoro viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi.
7. Buxoro viloyat davlat arxivi. – M-272-fond: Vobkent tuman hokimligi.